

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995–yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

G.Rasulova	
Andijon viloyati geomorfologik oykonimlari xususida	313
D.M.Gaziyeva	
Hozirgi kommunikativ maydonda mediamatnning o'rne	316
M.M.Gazieva	
Implitsitlik kategoriyasining lingvokognitiv va pragmalingvistik asoslari	321
U.Sh.To'rayeva	
Terminlar tarjimasining nazariy va amaliy asoslari	325
Q.Sh.Kaxarov, Z.M.Xusanova	
O'zbek va nemis tillarida motam bilan bog'liq shaxs, narsa, predmet va joy nomlari	328

FANIMIZ FIDOYILARI

MUXTORALI ZOKIROV	333
--------------------------------	-----

O'ZBEK VA NEMIS TILLARIDA MOTAM BILAN BOG'LIQ SHAXS, NARSA, PREDMET VA JOY NOMLARI

НАЗВАНИЯ ЛЮДЕЙ, ВЕЩЕЙ, ПРЕДМЕТОВ И МЕСТ, СВЯЗАННЫХ С ТРАУРОМ, НА УЗБЕКСКОМ И НЕМЕЦКОМ ЯЗЫКАХ

NAMES OF PERSONS, THINGS, OBJECTS AND PLACES RELATED TO MOURNING IN UZBEK AND GERMAN LANGUAGES

Kaxarov Qobil Shuhrat o'g'li¹, Xusanova Zamira Ma'rufjon qizi²¹Kaxarov Qobil Shuhrat o'g'li

– Farg'ona davlat universiteti, nemis va fransuz tillari kafedrası dotsenti v.b

²Xusanova Zamira Ma'rufjon qizi

– Farg'ona davlat universiteti, magistranti

Annotatsiya

Mazkur maqolada o'zbek va nemis tillaridagi motam marosimi bilan bog'liq joy, shaxs, narsa-predmet nomlarini anglatuvchi predmetlar tahlilga tortiladi, hamda ularning o'xshash va farqli tomonlari o'zbek va nemis tillari misolida ochib beriladi.

Аннотация

В данной статье анализируются объекты, означающие названия мест, лиц, вещей и предметов, связанные с траурной церемонией в узбекском и немецком языках, а также раскрываются их сходства и различия на примере узбекского и немецкого языков.

Abstract

In this following article places, person, things- objects, meaning subject names which is related to mourning ceremony in German and Uzbek languages will be analyzed and similarities and differences of them will be revealed with the help of examples in Uzbek and German languages.

Kalit so'zlar: dafn qilish, motam kiyimlari, kafan, qabrtosh, tobut, paromchi, kul solingan maxsus quti.

Ключевые слова: захоронение, траурная одежда, саван, нагробие, гроб, перевозчик, специальный контейнер с пеплом.

Key words: burial, mourning clothes, shroud, tombstone, coffin, steamer, special box with ash.

KIRISH

Xalqlarning urf-odatları o'z-o'zidan paydo bo'lib qolmaydi, yoki ular xalqning yuragidan ham kelib chiqmaydi. Ma'lum bo'lishicha, millatlarning udumlari insoniyatning ehtiyojlaridan kelib chiqib o'zlari tomonidan kashf qilinadi va ular rivojlanadi, u xalqdan bu xalqqa o'tadi, unutiladi, yo'qoladi yoki sayqal beriladi. Ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy, diniy majburiyatlar orqali urf odatlar kelib chiqishi ko'zga tashlanadi. Urf-odatlar "abadiy" emasligi va ular "moslashuvchanlik" xususiyatiga ega deya ta'rif etiladi. Avvalari, yangi urf- odatlarning elementlari bir mamlakatdan boshqa bir mamlakatga yoyilishida geografik chegaralar muhim ro'l o'ynagan bo'lsa, globallashuv va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari davrida umuman boshqacha ahamiyat kasb etmoqda. [1, 218] Mazkur maqolada O'zbek va nemis xalqlarining motam bilan bog'liq shaxs, narsa, predmet hamda joy nomlari leksemalari tahlilga tortiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI METODLAR

O'zbek va nemis xalqlari urf-odatlarida motam marosimlari bilan bog'liq leksik birliklar alohida o'rin egallaydi Dastavval, biz dafn marosimi bilan bog'liq joy nomlarini anglatuvchi leksik birliklarga e'tiborimizni qaratamiz.

Tarixga nazar solsak, 1970-yillar o'rtasigacha Yevropada yerga dafn qilish eng ko'p afzal ko'ringan shakl hisoblangan va qabrston dafn uchun maxsus joy sifatida talqin qilingan.

Barbara Lehnerning "Praxisbuch Trauerfeieren und Bestatungen" kitobida Bugungi kunga kelib Germaniyada dafn qilishning juda ko'p turlari mavjudligi haqida ta'kidlab o'tgan. Olov bilan dafn qilish usuli uch xil dafn qilish usuliga imkoniyat beradi: Havo, suv va daraxtga dafn qilish hisoblanadi. Nemis tilida so'zlashuvchi mamlakatlarda mayitning kuli uyga ham olib ketilishi mumkin va atrof –muhitni muhofaza qilgan holda ko'mish yoki har qanday joyga dafn qilishga ruxsat berilgan. Mayit yoqib yuborilgandan so'ng uning kuli maxsus kul solinadigan qutiga (**Urne**)

TILSHUNOSLIK

maxsus motam marosimini o'tkazuvchilar yoki tegishli shaxslar tomonidan tayyorlab beriladi. [2, 89] Quyda keltirilgan dafn turlari leksemalari hozirgi paytda Germaniyada mavjud.

1. Erdebestattung – yerga dafn qilish
2. Feuerbestattung- olovda yoqib dafn qilish
3. Luftbesattung- havoga kul yordamida dafn qilish
4. Wasserbesattung- suvga kul yordamida dafn qilish
5. Flussbestattung- daryoga kul yordamida dafn qilish
6. Besattung im See- ko'lga kul yordamida dafn qilish
7. Bestattung im Meer- dengizga kul yordamida dafn qilish
8. Baumbestattung- daraxt ostiga kul yordamida dafn qilish

Caitlin Doughty “Fragen Sie Ihren Bestatter” asarida keltirilishicha, kul solingan quti maxsus tegishli asbob yordamida ochiladi va to'g'ridan- to'g'ri qo'lda yoki belkurak yordamida sochiladi. An'anaga ko'ra tozlash va suv marosimi o'tkazilishi ham belgilab qo'yilgan. Kul sochayotgan paytda shamol yo'nalishiga ham e'tiborli bo'lish va kul to'g'ri tabiat bag'riga uchishi talab etiladi. [3, 49]

Erdebestattung – yerga dafn qilish leksemasi uzoq o'tmishga borib taqaladi va insoniyat yaralibdiki, u yerdan paydo bo'lib, yerga qaytadi. Islom, xristian va yahudiy dinlarida insoniyat Odam Atodan yaralgan, shu sababdan ular uchun yerga dafn qilish eng tinch joy hisoblanadi degan qarash mavjud. Dafn marosimida ishlatiladigan leksemalar insonda turli xil tasvirlar, g'oyalar, his- tuyg'ularni uyg'otadi. **“Sarg herunterlassen”** leksemasi o'zbek tiliga **“Qabrga qo'ymoq”, “die Erde übergeben”- “Qabrni kovlang”** degan ma'noni anglatadi.

Shunga o'xshash leksik birliklar **Barbara Lehnering “Praxisbuch Trauerfeieren und Bestatungen”** kitobida Mayitni qabrga qo'yish go'yoki ona farzandini uxlashga yotqizayotgandek deya ta'riflaydi. [2, 88-89]

Mutter Erde – literarisch die Erde (als mythologisches Wesen) aus der das Leben Pflanzen und Tieren hervorgeht. **Erde zu Erde, Staub zu Staub** bei einer Beerdigung, um zu sagen, dass der Körper des Menschen vergänglich ist. (und nur die Seele weiterlebt). [4, 357] Ona yer mifologik qarash maytning ta'nasi qabrga kirsada uning ruhi abadiy qoladi deb tahlil etilgan.

Feuerbestattung – olovga dafn qilish leksik birligi budda diniga xos bo'lib asosan tarixda hindlarda Gang daryosi bo'yida bu usul kuzatilgan hamda oilaning yosh jihatdan eng katta erkak kishisi olovni yoqish shart sanalgan.

Sabine Bröninman **“Wenn die Zeit sich neigt, Eine Frau begleitet bei Abschied Tod Trauer”** yozishicha maxsus kul ya'ni Urneni oddiy usulda idishga solib uni dafn qilish o'rniga, kulni o'zining ro'molchasiga tugib so'ng uni qabrga joylasa bu uning hurmati va g'amxo'rliqi ifodalaydi. [5, 165]

Luftbestattung – havoga dafn qilish leksemasi kulni ruxsat etilgan insonlar yashamaydigan joylar, ochiq daryolar, dengizlar, o'tloqlar, o'rmonlar, tog'larga samalyotlar yordamida sochiladi.

Wasserbestattung – suvga kulni dafn qilish daryo harakati va o'zgarishlarga boy bo'lgan hayot yo'lida tomchidek boshlanib dengizda tugaydi deb talqin qilinadi. Qolaversa paromchi yordamida daryodan o'tish bu dunyodan oxiratga o'tish sifatida tasvirlanadi. Ko'l yoki harakatsiz suv o'zida yashirin cheksizlikni anglatadi. Qadimgi nemis tilida ruh atamasi ko'l so'zi bilan bog'liq bo'lgan tassavvur mavjud. Ruhlar tug'ilishi dan oldin va o'lgandan keyin ham ushbu joyda dam oladi degan qarash mavjud.

Flussbestattung – Daryoga dafn qilish leksik birligi rasmiy jihatdan Shveysariyada ruxsat berilgan va kundan – kunga bu harakat xalq orasida ommalashib bormoqda. Dastlab hindlar marhumlarni yondirib kulini daryoga sochishgan. Ba'zi hollarda marhumni so'nngi yo'lga kuzatishda daryoga gullar, g'unchalar tashlangan ular sevgi, qalban bog'liqlik va minnatdorchilikni ifodalagan. Tabiat inom etgan ne'matlarni qayta unga sovg'a qilish maqsadida suzuvchi shamlar oqizilgan. Taylandda savatni xamirdan, banandan yoki palma daraxtidan to'qib va shamlar bilan bezatib suv ruhoniysi uchun qurbonlik qilingan.

Baumbestattung – Hayot daraxti leksemasi turli dinlarda bo'lib, dunyo daraxti sifatida yer va zulmatni balandliklar, osmon va yorug'lik bilan bog'laydi. Daraxt bahorda kurtaklashi va gullashi, yozda meva berishi hamda kuzda barglarini to'kishi inson umriga qiyos etiladi. Davlat qabrstonlariga ko'mishdan ko'ra o'rmon qabrstonlariga **Friedwald** ga dafn qilish ommalashib

bormoqda. Daraxtlar turlari, sifati va qaysi faslda gullashi ham ahamiyatli bo'lib har biri o'zidan motiv yasaydi. Rasmiy dafn qilish marosimi qoidasiga ko'ra o'rmon qabrstonida bo'lib o'tadi. Uchrashuv joyi qabrston markazida joylashadi. Tabiat qabrstoni qorovuli dafn qilish uchun go'r qaziydi va qabrni shoxlar bilan bezaydi. Daraxtlar harf yoki raqam bilan belgilanadi ularni gullar, shamlar, gulchambarlar bilan bezash mumkin emas.

Britta Teckentrup „Der Baum der Erinnerung kitobida“ Men motamchilar kelishidan oldin daraxt joyini oldindan bilib olaman va motamchilar kelishidan yarim soat oldin ziyorat qilaman. Keyin u yerni barglar bilan bezayman yoki qarindoshlardan gul va bezak barglar, mayda toshlar, atirgul barglari olib kelishini so'rayman.

Bir olianing dafn marosimida to'ng'ich o'g'il onasi uchun kofe donachalarini qo'ydi, chunki onasining eng sevimli ichimligi kofe edi. Bir ayol turmush o'rtog'i uchun qushlar solingan qafas osib qo'ydi chunki u qushlarga juda qiziqar edi, [7, 123] deb ta'kidlab o'tgan.

Demak, qabrga dafn qilish leksik birligi har ikkala xalq uchun ham xos sanaladi va yerga dafn qilish bizning mamlakatimizda majburiy hisoblanadi va dafn qilishning boshqa turlari esa bizning yurtimizda uchramaydi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ma'lumki, musulmon xalqlarida marhum vafot etsa mayitni tezroq qabrga qo'yish lozimligi ta'kidlanadi. Nemis xalqlarida esa marhum 48 soatgacha va undan ko'proq maxsus muzlatilgan xonalarda, zallarda saqlanish mumkin.

Trauerkleidung die kein Plural die schwarze Bekleidung, die die Hinterbliebenen als Zeichen der Trauer tragen, wen ein Angehöriger gestorben ist.[4, 1104] (Qora kiyim, yaqin qarindoshlar vafoti munosabati bilan hamdardlik bildirish uchun kiyiladigan libos) Germaniyada motam libosi rasmiy bo'lishi talab etiladi. Liboslar asosan qora rangda, ba'zan esa kulrang va to'q havorang kiyish ham mumkin hisoblanadi. Agar marhum oldindan o'zi qanday kiyim kiyishini vasiyat qilgan bo'lsa ushbu libosda bo'lishi mumkin. Ayollar uchun quydagi motam liboslari tavsiya etiladi. Qora yoki to'q kostyum shim, ko'ylak (kalta bo'lmasligi lozim) kofta va yubka, qora oyoq kiyimlar. Erkaklar uchun esa qora yoki to'q kostyum shim, palto, oq ko'ylak, qora oyoq kiyim belgilab qo'yilgan. Bolalar uchun hali maxsus kiyim o'ylab topilmagan, shu sababdan ular kundalik kiyimlarini motam libosi sifatida tanlash huquqiga ega. Ko'rinadiki ba'zan formalarni ham taziya marosimlarida marhum istagiga ko'ra hurmat belgisi sifatida kiyish mumkin.

O'zbek xalqida esa qat'iy belgilab qo'yilgan motam liboslari yo'q. Erkaklar boshlariga do'ppi kiyib chorsi boylab to'n kiyadilar. Ayollar esa ko'k rangli ko'ylak va boshlariga ro'mol o'raydilar. Dinimizda turmush o'rtog'i vafot etgan ayollar ziynatlarini tark etgan holda uch kun a'za tutish joiz. Dinimizda avvalgidan odimiroq kiyinib, taqinchoqlarga bezanmasligi talab etiladi. Demak quydagi tahlilardan ko'rinib turibdiki motam libosi leksemasi nemis va o'zbek tillarida farqlicha izohlanadi.

Kafan – ko'mish oldidan murdani o'raydigan oq mato, qabr libosi.

Uni o'lgan bolani eski doka kafanga o'ragan vaqtda, bo'yni va oyoqlari cho'zilib ketganini ko'rib, uch yoshga kirganini esladilar. \P.Tursun O'qituvchi\

Yigitali otasining oyoqlarini quchoqlab, o'kirib-o'kirib uzoq yig'ladi, biroq kafan tortilgan yuzlarini ko'ra olmadi. \D.Nuriy, Osmon Ustuni\ [8, 672]

Nemis tili izohli lug'atida maxsus bir nemislar uchun qabr libosi leksemasi uchramaydi.

Helga Maria Wolf o'zining “Die schönsten Rituale und Traditionen” kitobida shunday deydi: nemislarda o'lgandan keyin marhumga erkaklar uchun kostyum shim (Totenhemd) ayollar esa kelin ko'ylak (Brautkleid yoki Sonntagsanzug) kiydirilishi haqida ma'lumot beradi. [1, 218]

Bugungi kunda nemislar marhum vafotidan so'ng nima kiyishni istasa shuni, yoki ushbu insonning sevimli kiyimi bu misol uchun sport kiyimi, kundalik kiyimlar va boshqalar bilan kiyintirilib so'nggi manzilga kuzatiladi.

Totenbrett – das mit Inschriften und Malerein verziertes Brett, auf dem die Leiche vor dem Begräbnis gelegen hat und das zum Gedächtnis des Verstorbenen am Grab oder am Ort des Todes aufgestellt wird. [4, 1098] (dafn qilishdan oldin yotadigan va marhumning xotirasiga qabr yoki o'lim joyiga qo'yiladigan yozuvlar va rasmlar bilan bezaatilgan taxta).

Qabrtosh – Qabr ustiga o'rnatilgan, marmar, xarsangtosh va boshqalar materialdan tayyorlanadigan yodgorlik.

Borsa- kelmas evirildi- Erimading sen.

TILSHUNOSLIK

Qabrtoshlar tirildi- Erimading sen . \ E.Shukur, Hamal ayoni.\ [8, 198]
Keltirilgan misollar shuni anglatadiki dafn taxtasi ya'ni qabr toshi leksemasi tuzilish jihatdan o'zbek va nemis tillarida tavofut qiladi.



Tobut – dafn marosimida o'likni solib, mozorga yelkama- yelka ko'tarib bordigan to'rt dastali moslama. O'likni tobutga solmoq

Jasad yuvilib, kafanlangandan keyin, peshinga yaqin tobutni ko'chaga olib chiqdilar. / P. Tursun, O'qituvchi/

Zum o'tmay odamlar to'dasi tobutni lopillatib, ko'cha tomonga yo'l oldi. Yodgor bir vaqtlar tobut ko'tarish savob degan gapni eshitgan edi. /O'. Hoshimov, Qalbingga quloq sol/ [8, 127]

Sarg der; Särge der Kasten aus Holz , in dem ein Toter ins Grab gelegt wird, einen Toten in den Sarg legen, im Sarg aufbahren. (yog'ochdan yasalgan quti, o'likni tobutga solish, marhumni so'nggi manzilga kuzatish uchun foydalaniladi) [4, 928]

Ko'rinadiki, Tobut leksik birligi nemis va o'zbek tillarida o'xshash talqin qilinadi



XULOSA

Til – madaniyatning ko'zgusi bo'lib, unda nafaqat insonni o'rab olgan real borliq, uning real yashash sharoitlari, balki xalqning ijtimoiy o'zini o'zi anglashi, uning mentaliteti, milliy xarakteri, hayot tarzi, an'analari, urf- odatlari, axloqi, qadryatlar yeg'indisi va dunyoqarashi ham aks etadi. [9, 7]

Chet tillarini o'rganish va ushbu tilning an'analari va urf-odatlari, jumladan, to'y, aza va ular bilan bog'liq tantanalarni chuqur tadbiiq etish: Jumladan o'zbek va nemis xalqlarining motam marosimlarini, udumlarini bilish maqsadga muvofiqdir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Helga Maria Wolf. Die schönsten Bräuche und Rituale Traditionen. – Insel Verlag, 2015. – S. 218.
2. Barbara Lehner. Parxisbuch Trauerfeiern und Bestattungen. – Patmos Verlag, 2021. – S. 89.

3. Caitlin Doughty. "Fragen Sie Ihren Bestatter" – C.H.Beck, 2016. – S.49.
4. Langenscheidet. Grosswörterbuch Deutsch als Fremdsprache. – Langenscheidet Verlag, 2015. – S.357.
5. Sabine Brönniman. Wenn die Zeit sich neigt. Eine Fährfrau begleitet bei Abschied, Tod, Trauer-Patmos. – Verlag München, 2012. – S.165.
7. Britta Teckentrup. Der Baum der Erinnerung. – München Verlag, 2013. – S.123.
8. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. А.Мадвалиев таҳрири остида – Тошкент: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2006. – 672 б.
9. Shoiri Usmanova. Lingvokulturologiya. – Toshkent, 2